

BROKKOLI DURAGAYLARINI AGROBIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ibrohimova Shamshoda Farhod qizi

Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti

Annatotsiya: Ilmiy maqolada Brokkoli duragaylari urug'larini ochiq maydonda unuvchanligini aniqlash bo'yicha tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki ekilgan duragaylar ichida Fiesta F₁, Strombili F₁, Parthenon F₁ va Agassi F₁ duragaylarining urug'ini birmuncha ertaroq unib chiqishi kuzatildi. Urug' kilgandan so'ng 3 kundan keyingi kuzatuvlarda ushbu duragaylarda jami ekilgan 300 dona urug'ning qariyb 11-12% qismi unib chiqdi va duragaylar bo'yicha 38,0-44,3 dona atrofida o'zgarib borganligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: brokkoli karami, duragaylar urug', urug' unuvchanligi, barg, ildiz unib chiqishi, urug', harorat.

Kirish Hozirda meva-sabzavotchilikga ixtisoslashgan klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yilishi, urug'ni to'g'ri tanlashdan toki mahsulotni sotishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab olmoqda. Bu esa ushbu jarayonlarning barcha bosqichlari bo'yicha ilmiy asoslangan yahlit hulosalar berishni talab qilmoqda. Shu bois saqlanuvchanlik hususiyati yuqori bo'lgan brokkoli karami duragaylarni agrobiologik hususiyatlarini o'rganish maqsad qilib olindi. O'simlik bilan sodir bo'layotgan o'sish jarayonlari dinamikasi butun o'suv davri mobaynida fenologik bosqichlarning boshlanishiga ko'ra baholanadi. Fenologik kuzatuvlardan olingan ma'lumotlar bo'yicha duragaylarning tezpisharligi va ular rivojlanishining individual xususiyatlari haqida mulohaza yuritiladi.

Tajribalarimizda tanlab olingan 4 ta brokkoli duragaylar urug'lari har yili yanvar oyining oxirgi dekadasida kassetalarga ekilgan. Ko'chat tayyorlashda kerakli substrat va materiallar quyidagilardan iborat: torf 250 l/xajm 75-78 kg, biogumus 2 qop, vermekulit 2 qop, Kasseta 92 dona 104 talik yacheyska 3x3,5 sm lik o'lchamda. Urug' ekishda 1 ta kassetaga 2,7 1 hajmda aralashma (substrat) solib to'ldiriladi. Suv sepilib namlantirib,

so‘ngra urug‘ o‘rni qisman zichlanadi. Urug‘ ekilgandan so‘ng 0,3 l xajmdagi aralashma bilan urug‘ usti yopiladi. Urug‘ unib chiqish uchun kaseta substratidagi harorat 12-15⁰S kam bo‘lmagan, 24-25⁰S bo‘lishi maqbul hisoblanadi.

Birinchi sug‘orish to‘yintirilgan holda, kassetalar asosi (yacheyka teshikchalar) dan suv sizib chiqgunicha amalga oshiriladi. Keyingi sug‘orishlar har kuni 2 marta amalga oshiriladi. Yozgi sharoitda 3-5 kunda, qishki sharoitda 5-7 kunda unish jarayoni kuzatiladi. Ko‘chat tayyorlash sharoiti ya’ni mavsum hamda substrat tarkibiy qismlari manb’asidan kelib chiqib sug‘orishlar amalga oshiriladi. Agar substrat chirindi, go‘ng, tuproq aralashmasidan tashkil topgan bo‘lib; urug‘ yerga, kasetaga, polietilen stakanga ekilganda yuqorida keltirilgan tavsiyaga nisbatan yondashuv biroz o‘zgaradi.

Torfga nisbatan chirindi, tuproq aralashmasidagi Ph ko‘rsatkichi neytral bulmasligi ya’ni ishqoriy yoki kislotaligi hamda urug‘ unishiga qarshilik kuchi yuqori bo‘lishi unuvchanlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada tuliq ko‘chat olish foizi kamayadi. **1-chinbarggacha:** 3 marta 1 t suvga 3 kg NPK (13.40.13) qo‘shib beriladi. **2-chinbarg chiqarganda:** 1 t suvga 3 kg NPK (20.40.20)+ENJO, Ridomil cold+ misli birikma qo‘shib beriladi. **3-chinbarg chiqarganda:** 1 t suvga 2 kg Kaliy nitrat (KNO_3) eritilib beriladi. **4-chinbarg chiqarganda:** 1 t suvga 3 kg NPK (20.20.20) qo‘shib beriladi. **5-chinbarg chiqara boshlaganda:** Ko‘chatlar ochiq dalaga chiqishidan oldin 10 l suvga 10 g aminokislotalar, 10 g Indoksakarp, 5 g yopishqoq modda 30 g VL77 qo‘shib beriladi. Sug‘orishlar soni holatdan kelib chiqib olib boriladi. Kasetalardagi ko‘chatlarni 4-chinbargdan so‘ng tashqi muhit sharoitiga moslashtirish maqsadida kunduzgi vaqtarda issiqxona eshiklari va plyonkalari qisman ochib quyiladi. Urug‘ ekilgan kundan ko‘chat ochiq dalaga ekishga tayyor bo‘lguncha 30-40 kun vakt ketadi. Tadqiqot yillarida tanlangan 4 ta brokkoli duragaylar urug‘lari har yili yanvar oyining oxirgi dekadasida o‘lchami 4x4 sm bo‘lgan kasetlarda ekildi. Ko‘chat ekishda birinchi navbatda biogumus tayyorlab, barcha kasetalarga solib chiqdik. Keyingi bosqichda har bir nav va namunadan 300 tadan ajratib olib yacheykalarga bittadan ekib chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Brokkoli duragaylari urug‘larining unib chiqish dinamikasi (2023-2024 y.y)

№	Duragaylar	Urug‘ ekilgandan keyingi kuzatuv sanasida ungan urug‘lar miqdori, dona*			
		01/II	05/II	10/II	15/II
1	FiestaF ₁ .naz	44,5	175,1	282,1	292,6
2	Strombili F ₁	23,2	170,5	245,5	281,2
3	Parthenon F ₁	16,8	146,2	248,6	269,5
4	Agassi F ₁	39,5	163,5	286,1	290,1

Brokkoli duragaylari urug‘larini ochiq maydonda unuvchanligini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki ekilgan duragaylar ichida Fiesta F₁, Strombili F₁, Parthenon F₁ va Agassi F₁ duragaylarining urug‘ini birmuncha ertaroq unib chiqishi kuzatildi. Urug‘ kilgandan so‘ng 3 kundan keyingi kuzatuvlarda ushbu duragaylarda jami ekilgan 300 dona urug‘ning qariyb 11-12% qismi unib chiqdi va duragaylar bo‘yicha 38,0-44,3 dona atrofida o‘zgarib borganligi kuzatildi.



Xulosa: Brokkoli duragaylari urug‘larini ochiq maydonda unuvchanligini aniqlashda turli substratlarni nisbat ko‘rsatkichlari ta’sir etishi natijasida duragaylar urug‘larini unuvchanligi yuqori ko‘rsatkichda bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Болтаев М.А., Асатов Ш.И. Подбор гибридов и определение сроков посева повторной культуры брокколи в Узбекистане. // Аграрная наука. - №5. – 2018. – С. 38-41.
2. Болтаев М.А., Асатов Ш.И. Подбор гибридов и определение сроков посева повторной культуры брокколи в Узбекистане. // Бюллетень науки и практики. - №6. – 2018. – С. 113-120.
3. Гаджимустапаева Е.Г. Влияние экологически безопасных регуляторов роста растений на урожайность и качество брокколи. // Овощи России. – № 3 (36). – 2017. – С. 148-153.
4. Гаджимустапаева Е.Г., Рабаданов Г.Г. Особенности возделывания капусты цветной и брокколи в почвенно климатических условиях равнинной, предгорной и горной провинций дагестана. // Овощи России. – № 3 (28). – 2015. – С. 90-95.
5. Гаджимустапаева Е.Г., Чернышева Н.Н. Капуста цветная: монография. // Барнаул: АГАУ, 2013. – 112 с